

**ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA PEDAGOGIKANI
KASBGA YO‘NALTIRIB O‘QITISH METODIKASI**

*Xodjamberdiev M.S.
Andijan davlat universiteti dotsenti*

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy yondashuvlar asosida pedagogikada kasbga yo‘naltirib o‘qitish metodikasi mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, STEAM ta‘lim texnologiyasi asosida kasbga yo‘naltirishning nazariy masalalari o‘rganilgan.

Аннотация: Данная работа посвящена теме методики преподавания педагогики на основе современных подходов с акцентом на профессию, в которой были изучены теоретические вопросы профессиональной ориентации на основе STEAM технологии.

Annotation: This work is devoted to the topic of pedagogy teaching methodology based on modern approaches with an emphasis on the profession, in which the theoretical issues of vocational guidance based on STEAM technology were studied.

Kalit so‘zlar: Texnologiya, ta‘lim texnologiyasi, ta‘lim metodi, STEAM ta‘lim texnologiyasi, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim, kasbga yo‘naltirish.

Ключевые слова: Технология, образовательная технология, образовательный метод, образовательная технология-STEAM, лично ориентированное образование, профориентация.

Key words: Technology, educational technology, educational method, STEAM educational technology, person-oriented education, career orientation.

Jahon hamjamiyatining globallashuvi davrida fan, texnika va texnologiyalarning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlariga monand bo‘lgan ishlab chiqarish munosabatlarining muntazam o‘zgarishi kuzatilayotgan hozirgi kunda Respublikamiz ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng ko‘lamni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor sur‘atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda talabaga etkazib berishni yo‘lga qo‘yish ta‘lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Ta‘lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va ta‘lim texnologiyalarini tadbiiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi. Texnologiya (yunoncha “techne” – mahorat, san‘at, “logos” – tushuncha, ta‘limot) – muayyan (ishlab chiqarish, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqalar) jarayonlarning yuksak mahorat, san‘at darajasida tashkil etilishi. Ta‘lim texnologiyasi (ingl. “an educational technology”) – ta‘lim (o‘qitish) jarayonining yuksak mahorat, san‘at darajasida tashkil etilishidir. Ta‘lim texnologiyasi deyilganda – ta‘lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya‘ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta‘lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq masadga erishish yo‘lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta‘lim jarayonini yuqori darajada boshqarish tushuniladi. Ta‘lim texnologiyasining markaziy muammosi – ta‘lim oluvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta‘lim maqsadiga erishishni ta‘minlashdan iborat.

“...XXI asr sivilizatsiyasiga yo‘l boshlovchi ilmiy-texnika jarayoni kimda kim o‘zining intellektual imkoniyatlarini tahlil qilish, sintezlash, baholash, shuningdek

moslanuvchan aliy va ijodiy qobiliyatlarini boshqalarga nisbatan yaxshi rivojlantira olsa o‘shanga ish va mansab in’om etadi - bu deyarli 30 yil avval yozilgan bashoratli fikr-mulohazalar zamonaviy mutaxassislar tayyorlashga qo‘yilayotgan talablarni juda aniq belgilab beradi [1].

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘zgarishlar mutaxassislarning yangi avlodi egallashi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarga yangi-yangi talablarni keltirib chiqarmoqda. Bu birinchidan ilmiy bilimlarni ko‘p talab qiladigan texnologiyalarni keng tarqalishiga taalluqli bo‘lsa, ikkinchidan, ishni tashkil qilishdagi o‘zgarishlar va o‘qitish jarayonining natijalariga tegishlidir.

XXI asr uchun oliy ta’lim haqidagi Butun jahon deklaratsiyasida ta’kidlanganidek: “...malakali va keng ma’lumotli insonlarning kritik massasini barpo qiluvchi adekvat oliy ta’limga va ilmiy tekshirish muassasalariga ega bo‘lmay turib birorta mamlakat real va barqaror rivojlanishni ta’minlay olmaydi...” [2].

Shuning uchun ham kelajakda buyuk taraqqiyotga ega, huquqiy adolatli, demokratik davlat va erkin fuqorolik jamiyatini qurishni maqsad qilgan vatanimiz yoshlarida ijodiy fikrlashni rivojlantirish, ularning yangilik yaratishga bo‘lgan hohish va istaklarini imkon darajasiga ko‘tarish ko‘zlangan maqsad va ezigulik yo‘lidagi ta’lim tizimining asosiy tadbirlaridan biri qisoblanshi lozim. Oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari o‘qitish jarayonida talabalarni ijod qilishga, izlanishga, mushoqada qilishga, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni o‘z ichiga olgan interfaol usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi fikr-muloqozlardan kelib chiqib, ushbu maqolada, oliy ta’lim tabiiy-aniiq fanlar yo‘nalishlari talabalariga zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan biri bo‘lgan STEAM texnologiyasi asosida, oliy ta’limda fan, ta’lim, ishlab chiqarish uzviyligini qisobga olib, fizika fani mazmun-mohiyatini fan, texnologiya, muxandislik san’at va matematika fanlari integratsiyasini qisobga olib, faoliyatli yondoshuv - kasbga yo‘naltirish -asosida, ya’ni kelgusida egallanadigan kasblari uchun yaxlit, tizimlashtirilgan, tugallangan bilim berish masalalari ko‘rib o‘tilgan.

Tabiiy-ilmiy predmetlarining o‘zaro boqlanish muammosi hozirgi zamon dialektikasining faol muammolaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Bu muammo tarixiy nuqati nazaridan yangi emas, chunki bu muammo didaktikani ta’lim nazariyasi fan sifatida shakllanayotgan davrda paydo bo‘lgan.

Buyuk chet el pedagoglari Ya.A. Komenskiy, I.G. Pestoletstsi, F.Disterverg va boshqalarning ishlaridi, rus ta’lim nazariyotchilari K.D.Ushinskiy, V.F. Odoevskiylarning kitoblari va maqolalarida o‘qitish jarayonida fanlararo o‘zaro boqlanishni amalga oshirish zarurligini asoslaganlar chunki bu boqlanish asosida o‘quv-tarbiya jarayonining samaradorligini ortirish mumkin[3].

Mazmuni bir-biriga yaqin bo‘lgan predmetlarning o‘zaro boqliqligi talabalarning bilimni sifatini oshiribgina qolmasdan, balki ularni amaliyotga tayyorlashga imkon beradi, ularning ko‘p qirrali dunyoqarashini rivojlantiradi va materialistik dunyoqarashini shakllanishiga yordam beradi[4,5].

Shu nuqtai-nazardan STEAM-ta’lim texnologiyasi bo‘yicha adabiyotlarni tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu ta’lim texnologiyasi fanlar integratsiyasini inobatga olgan holda texnolog-muxandislik tafakkuri asosida o‘zlashtirilgan nazariy bilim, egallangan ko‘nikma, malakalar hamda kompetentsiyalar hayot bilan, amaliyot bilan, ishlab chiqarish bilan spiralsimon usulda oddiydan murakkabga tomon rivojlantirilib borishligi nazarda

tutilganligi hisobiga, talabalarga bizni o‘rab olgan, doimo harakatda bo‘lgan mikro va makro olamni yaxlit, ajralmas, bir butunligini anglab, faqqlab, tushunishga yordam beradi.

STEAM texnologiyasi asosida talabalar fanlar asosidan o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini matematika va boshqa aniq fanlar muqandislik, dizayn, texnologiyalari bilan boqlaydilar, o‘z loyiqalarini yaratadilar va qurilmalarning ishlash moqiyatini tushunib borib, yaxlit, tizimlashtirilgan, ilmiy bilim, ko‘nikma, malaka va imkoniyatlarga ega bo‘lib boradilar.

STEAM-texnologiyasi an’anaviy ta’limdan farqli ravishda bilimlarni aloqida emas, fanlar integratsiyasi asosida o‘zlashtirishga olib keladi.

STEAM - ta’lim texnologiyasi talabalarning ilmiy-texnika yo‘nalishlari bo‘yicha kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan.

STEAM-ta’lim texnologiyasi asosida fanlar asosini o‘qitish bitiruvchilarda nostandart sharoitlarda yuzaga keladigan muammolarni hal etish, ta’limning barcha bosqichlarida injenerlik qobiliyati va ijodkorlikni rivojlantirish hamda mustaqil qayotda zarur bo‘ladigan mehnat ko‘nikmalarini o‘zlashtirish, mustaqil hayotga qadam qo‘yishda zarur bo‘ladigan bazaviy kompetensiyalar va dunyoqarashlarini shakllantiradi. Shu bilan bir qatorda butun dunyo pedagog olimlarining sifatli va zamonaviy kadrlarni tayyorlashga va yangi texnika va texnologiyalarini egallagan muqandis kadrlarga bo‘lgan talabning kundan-kunga oshib borishini nazarda tutgan holda STEAM-ta’lim dasturining tadbiqu aloqida e’tiborga molikdir.

Xalqaro tajribalar asosida STEAM ni joriy etilishi bugungi kunda ta’lim tizimiga yondashuvni o‘rganish va ta’limga bo‘lgan munosabatini o‘zgartiradi. Talabalar-o‘quvchilar amaliy ko‘nikmalarga e’tibor qaratish oraqli irodani, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o‘rganadi. Bugungi barcha soqalardagi rivojlanish davrida o‘quv va kasbiy fanlarni qisqartirish STEAM tushunchasiz mutaxassislarni tayyorlashga yangicha qarash aniq texnologik, muxandislik ilmi va matematikasiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Shu bilan bir qatorda fizika fanini o‘qitish – oliy ta’limni bitiruvchilarining ilmiy-texnik savodxonligini, muqandislik ko‘nikmalarini va kompetensiyalarini shakllantirish, shu bilan birga zamonaviy texnik tizimlar va texnologiyalardan professional darajada foydalanish, loyiqalashtirish va texnik tizimlarni boshqarishni o‘zlashtirish imkonini beradi.

Fizika uzluksiz ta’lim tizimida asosiy integratsion mexanizm vazifasini bajaradi, tabiiy, ilmiy-texnik, texnologik va gumanitar fanlar doirasida olgan bilimlarini meta-fan darajasida qo‘llashni o‘rgatadi va oliy ta’limning amaliy jihatlarini kuchaytirishga yordam beradi. Fizika fanini zamonaviy talablar asosida o‘rganish orqali bitiruvchilarda ishlab chiqarish texnologiyalarini o‘zlashtirish jarayonida tushunish, qo‘llash, nazorat qilish, mukammallashtirish va baholash, loyihalashtirish, izlanish, boshqarish shakllanib boradi.

Samarador va to‘qri texnologiyalarni tanlash, nostandart fikrlash va faoliyat yuritish ko‘nikmasini shakllantirish orqali yangi mahsulot, xizmatlar va mehnatga ta’sir o‘tkazishning yangi uslublarini yarata oladi. Turli xil kasbiy ko‘nikmalarni egallash orqali mustaqil hayotda zarur bo‘ladigan kasbni to‘qri tanlash, mehnat qilish, yangi bilimlarni egallash, mukammallikka erishish uchun o‘z ustida mustaqil ishlash va amaliy faoliyat yuritish va tez o‘zgaradigan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy sharoitlarga moslashuvchan, noaniq vaziyatlarda mustaqil ta’lim olishga tayyor mutaxassislar tarbiyalaydi. Shunday qilib, STEAM-ta’lim texnologiyasi bo‘yicha adabiyotlarni tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu ta’lim texnologiyasi asosida fanlar asosidan texnolog-muxandislik tafakkuri asosida

o‘zlashtirilgan nazariy bilim, egallangan ko‘nikma, malakalar hamda kompetentsiyalar hayot bilan, amaliyot bilan, ishlab chiqarish bilan spiralsimon usulda oddiydan murakkabga tomon rivojlantirilib borishligi nazarda tutilganligi qisobiga, talabalarga bizni o‘rab olgan, doimo harakatda bo‘lgan mikro va makro olamni yaxlit, ajralmas, bir butunligini anglab, faqmlab. tushunishga va xulosa chiqarishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vivian de Landsher. Kontseptsiya “minimalnoy kompetentnosti”. G`G` Perspektivo`, 1988.. №1
2. Всемирная декларация о высшем образовании для XXI века: Подходы и практические меры // Всемирная конференция ЮНЕСКО по высшему образованию, Париж, 1998.
3. Система межпредметных связей по предметам естественно-математического цикла. Сборник научных трудов НИИСиМО. Москва 1981г.
4. Khodjamberdiyev M.S. Didaktik baases of providing holistic, systematized knowledge on the basis of science. Jurnal of ethics and diversity in international communication. 2022-06-01. Volume-2, ISSUE-5
5. Xodjamberdiyev M.S. Fanlararo o‘zaro boqlanish tizimlashtirilgan, yaxlit bilim berishning didaktik asosi sifatida. Obrazovaniya i nauka v XXI veke. №A3-20220621-6, 2022g. s.293-297.